

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ ҚАРШИ ДАВЛАТ**  
**УНИВЕРСИТЕТИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ**

**ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ ВА**  
**РЕКРЕАЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ**  
**ГЕОГРАФИК МУАММОЛАРИ ВА**  
**ИМКОНИЯТЛАРИ**

**Республика илмий - амалий конференцияси**  
**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил 19-май**

**Қарши – 2021**

|   |  |  |     |
|---|--|--|-----|
| 67  | Маликов Б. Б.,<br>Ортиқова Д. Б.                         | Ўрта Зарафшон ҳавзаси ландшафтларини текширилиш тарихи   | 180 |
| 68  | Очиллов И. С.,<br>Эшмуродов О. Р.,<br>Султонов Ш. А.     | Чакилкалян мегаблокидаги Акба майдонининг карлин типдаги апокарбонатли олтин минераллашуви       | 183 |
| 69  | Тўланова Н. Д.   | Миллий боғларни функционал зоналарга ажратишнинг геоэкологик жиҳатлари                           | 185 |
| 70  | Akbarov S. B.,<br>Pirnazarova S. A.                      | Tuproq eroziyasi va uni oldini olish masalalari  | 187 |
| 71  | Usmanova R.,<br>Ziyodullayeva Sh.T.                      | Atmosfera havosi ifloslanishining inson salomatligiga ta`siri                                    | 189 |
| 72  | Xayitov Yo. Q.,<br>Rajabova M. O.                        | Buxoro viloyatidagi ayrim suv inshootlarining gidrologik tahlili                                 | 191 |
| 73  | Akbarov S. B.,<br>Pirnazarova S.                         | Gidrotexnik inshootlarning atrof-muhitga ta`siri (Samarqand viloyati suv omborlari misolida)     | 194 |
| 74  | Usmanova R.,<br>O`roqova Yu. A.                          | Qashqadaryo havzasi suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari                            | 195 |
| 75  | Usmanova R.,<br>Ziyodullayeva Sh. T.                     | Tibbiy landshaftshunoslik tadqiqotlari ob – havo omillarini O`rganilishi asosida                 | 199 |
| 76  | Xayitov Yo.Q.,<br>Ramazonova I.A.                        | To`dako`l suv omboridan foydalanishning optimal yo`llari   | 201 |
| 77  | Xayitov Yo.Q.,<br>Sherqulov X. J.                        | Zamonbobo ko`lining ba`zi gidrologik xususiyatlari   | 202 |
| 78  | Fўдалов М.Р.<br>Мухамедов О.Л.                           | Айдар-Арнасой қўллар тизими таъсирида ландшафтлардаги ўзгаришларни прогнозлаш                    | 204 |
| 79  | Пайзуллаев М. А.   | Андижон вилояти рекреацион ресурсларининг шаклланиши ва ривожланишида иқлимий ресурсларнинг роли | 209 |
| 80  | Ходжиматов А.Н.,<br>Горшунова А.М.,<br>Абдулҳакимов А.Б. | Иқлим ўзгариши: моҳият ва ер-сув-яйловлар дегредацияси   | 211 |
| 81  | Пирназаров Р. Т.,<br>Муҳитдинов И. И.                    | Кўксув дарёси оқимининг шаклланишида гидрометеорологик омилларнинг роли                          | 213 |
| 82  | Жангабаев Д.М.   | Орол денгизи дегредацияси давридаги сув баланси динамикаси                                       | 216 |
| <b>III ШУЪБА</b><br><b>ИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОЙ ГЕОГРАФИЯ</b> |  |  |     |
| 83  | Файзуллаев М. А.   | Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва районлаштириш масалалари                                | 218 |
| 84  | Эрдонов М.,<br>Омонтурдиев А.                            | Денов туманини ижтимоий ва иқтисодий ривожлантириш масалалари                                    | 220 |
| 85  | Калонов Б. Ҳ.  | Жанубий Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги тармоқларини ҳудудий жойлаштириш масалалари                 | 223 |
| 86  | Кувандиков О.Х.,<br>Джумабоев Т.Дж.                      | Самарқанд вилоятида узумчиликни ривожлантиришнинг ҳудудий жиҳатлари                              | 225 |
| 87  | Эрдонов Л. Н.,<br>Азизова М. Н.                          | Қашқадарё вилояти саноат тармоқлари ривожланишининг иқтисодий – географик жиҳатлари              | 228 |
| 88  | Алланов Қ.А.,<br>Эрдонов М.Н.,<br>Чориев А.Қ.            | Сурхондарё вилоятида енгил саноат тармоқларини ривожлантириш масалалари                          | 231 |
| 89  | Abdinazarova X. O.                                       | Kimyo sanoatini iqtisodiy geografik o`rganishning ilmiy nazariy asoslari                         | 234 |
| 90  | Навотова Д. И.   | Қашқадарё вилояти суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолати ва геоэкологик вазияти              | 237 |

|    |   |  |     |
|----|---|--|-----|
| 91 | Қаландаров У. С.,<br>Гулимматов И. Б.,<br>Авезов С.А. | Хоразм вилояти қишлоқ хўжалигида агроиклимий ресурслар ва улардан фойдаланиш | 239 |
|----|---|--|-----|

## TO'DAKO'L SUV OMBORIDAN FOYDALANISHNING OPTIMAL YO'LLARI

*Xayitov Yozil Qosimovich*  
*geografiya fanlari doktori(DSc)professor*

*Buxoro davlat universiteti*  
**Ramazonova Iroda Ahmadali qizi**  
*magistrant, Buxoro davlat universiteti*

Suv – hayot manbai, u dunyodagi eng keng tarqalgan moddalardan biri hisoblanadi. Umumiy zahirasi 1386 mln km<sup>3</sup> deb baholangan. Keyingi vaqtlarda insoniyatning suv resurlariga nisbatan munosabati o'zgardi. Bunga sabab chuchuk suvga bo'lgan ehtoyojning ortib borishi, daryo suvlari miqdorining kamligi, ayrim manbalarda bu suv miqdori 48 ming km<sup>3</sup> deb qayd etilgan. Mavjud suv resurslaridan faqat yarmidan foydalanish imkoni bor, miqdor esa yetarli emasligi kundun-kunga suvga bo'lgan talabning ortishi, undan yanada oqilona foydalanishga undaydi. Qurg'oqchil o'lkalarda suvga bo'lgan muammoni kamaytirish maqsadida suv omborlari qurilgan. Keyingi paytlarda suv resurlariga bo'lgan talab shahar aholisi jon boshiga oladigan bo'lsak 1 kunda 300-400 litrni tashkil etadi. Shunday ekan o'lkada suv resurslaridan samarali foydalanishni takomillashtirish yo'llarini izlab topish dolzarb hisoblanadi.

Buxoro viloyat hududi O'zbekistonning janubi-g'arbida, Zarafshon daryosining quyi qismida, janubi-g'arbiy Qizilqumda, berk havzada joylashgan hisoblanadi. U Tinch okeanidan 5500 km, Atarktidadan 4000 km, Hind okeanidan 2000 km uzoqlikda joylashgan. Viloyat 2 xil geotizimdan iborat. 1- cho'l 88.6%, 2- voha 11.4% hududni egallaydi. Viloyat tabiiy oqar suv manbaiga ega emas. Bugungi kunda asosiy suv manbai 1962-1975 yillarda qurilgan Amu-Buxoro mashina kanali-dir. Kanal orqali Amudaryodan har yili 4,2 – 4,8 km<sup>3</sup> suv olinadi va relyef nishabligiga teskari yo'nalishda Buxoro, Qorako'l, Qorovulbozor vohalariga suv oqiziladi. Kanal suvining katta qismi bilan To'dako'l va Quyimozor suv omborlari to'ldiriladi. Obikor yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida zovurlar tizimi yaratilgan bo'lib, ular orqali oqava suvlar Oyoqog'itma, Sho'rko'l, Qoraxotin, Zamonbobo, Katta Tuzkon, Kichik Tuzkon, Dengizko'l va boshqa o'ndan ortiq ko'llarga oqizilmoqda.

1- jadval

### O'zbekiston suv omborlari: Amudaryo havzasida

| Viloyat     | Suv omborining soni | Foydali suv hajmi km <sup>3</sup> |
|-------------|---------------------|-----------------------------------|
| Xorazm      | 1                   | 4,505                             |
| Qashqadaryo | 14                  | 2,348                             |
| Samarqand   | 7                   | 1,063                             |
| Surxondaryo | 4                   | 0,902                             |
| Buxoro      | 2                   | 0,845                             |
| Navoiy      | 2                   | 0,430                             |

*Suv O'zbekiston kelajagi uchun muhim hayotiy resurs. Toshkent. 2007*

Bugungi kunda daryo suvidan to'liq, unumliroq foydalanishda suvomborlarining ahamiyati katta. Tarixiy manbalarga ko'ra dastlabki suvomborlari eski eraning oxirlari va yangi eraning boshlarida qurilgan. X-XII asrga kelib ancha mukammal suv omborlari bunyod etilgan. Ulardan biri X asrda qurilgan Xonbandi suv omboridir. Bu suv ombori Jizzax viloyati Forish tumanidagi Pastdarg'om darasida eng tor joyida qurilgan bo'lib, to'g'onning balandligi 15 metr dan ortiq bo'lgan hamda 1,5 mln m<sup>3</sup> suvni sig'dira olgan. Suv omborlari daryolarning toshqin davridagi va qishdagi ortiqcha suvlarni to'plab, suv kamaygan vaqtda ulardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Ayni vaqtda

Amu-Buxoro mashina kanali orqali jami 314,9 ming gektar yer sug'orilib dehqonchilik qilinmoqda. Shundan Buxoro viloyatiga 275,0 ming gektar, Navoiy viloyatiga esa 39,9 ming gektar yer maydonlari sug'orilmoqda. To'dako'l suv ombori asosan Buxoro va Navoiy viloyatlariga tegishli bo'lgan yerlarni suv bilan ta'minlash maqsadida qurilgan. Ikkala viloyatning irrigatsiya tizimiga xizmat qiluvchi suv ombori 1968-yilda tabiiy soylikda Buxoro shahridan sharqda, Quyimozor suv omborining janubi-g'arbida ishga tushirilgan bo'lib, 1977-yilda qayta ta'mirlangan. Suv omborining to'liq hajmi 1 milliard m<sup>3</sup> dan 1200 milliard m<sup>3</sup> gacha o'zgarib turadi. Suv yuzasining maydoni 162 km<sup>2</sup>, o'rtacha chuqurligi 11.7 m, maydoni 225 km<sup>2</sup>, suv chiqarish quvvati 46 m<sup>3</sup>/sek, uzunligi 15000 m, kengligi 14000 m, to'g'on balandligi 12 metr, tog'on uzunligi 4000 metr. To'dako'lga O'rtacho'l kanali orqali Zarafshon daryosining ortiqcha suvlari yig'iladi. Tutashtiruvchi kanal orqali Quyimozor suv omboriga suv beradi. Suv omborida o'ziga xos flora va fauna shakllangan, ko'lda zog'ora baliq, laqqa baliqning o'ndan ortiq turi yashaydi. Ko'l va uning atrofida hayoti bevosita suv bilan bog'liq qarchig'ylar, sariq sor, oq dumli suv burguti, baliqchilar, o'rdaklar kichik g'oz, kichik oqqush, kulrang oqqush kabi ko'plab qushlar ushraydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin egallab borayotgan Buxoro va Navoiy viloyatlari uchun suv resurslari katta ahamiyatga ega. Jumladan, To'dako'l suv omboridan yil davomida to'la foydalanib kelinmoqda. Birgina 1tonna bug'doy yetishtirish uchun 1500 tonna, 1 tonna sholi yetishtirish uchun 4000 tonna, 1 tonna paxta hosil olish uchun esa 10000 tonna suv sarflanadi. Shunday ekan hozirgi vaqtda viloyatda suv resurslaridan samarali foydalanishdagi muammolar asosan antropogen omillarning salbiy ta'siri natijasida ro'y beradi.

Suv omborlarining foydali tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham mavjud. Ular atrof-muhitni tashkil qiluvchilar gidrosfera va atmosfera, biosfera va geodinamik sharoitni shakllantiruvchi barcha faktorlar, ya'ni yer osti suvlari rejimi, relyef, iqlim, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, landshaft va boshqalariga ta'sir ko'rsatadi. Ulardan sizib chiqqan suv atrofdagi grunt suvlarini to'yintirib, ularning sathini ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda va oqibatda suv omborlari atrofidagi avtomorf landshaftlar asta-sekin yarim gidromorfga va gidromorfga aylanmoqda.

To'dako'l suv ombori suvidan optimal foydalanish yo'llarini quydagicha tavsiya etishimiz mumkin:

\* Suv omborini to'ldirish uchun xizmat qiladigan Amu-Buxoro irrigatsiya tizimidagi suv qurilmalarini yangilashimiz kerak.

\* Amu-Buxoro kanalini foydali ish koeffitsiyentini oshirish lozim.

\* Suv omborining gidrologik rejimini boshqarib turadigan mutaxassislarni tayyorlab borishimiz zarur.

\* Suv omboridan nafaqat irrigatsiya tizimida balki baliqchilik sanoatida, qishloq xo'jalik sohasida va turizm sohasida ham keng imkoniyatlarni yaxshilashimiz lozim'

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hikmatov P.H. Aytbayev D. Ko'lshunoslik. Toshkent. 2002.
2. Rasulov A. P. Hikmatov P.H. Umumiy Gidrologiya. Toshkent -1995. Universitet.
3. Suv O'zbekiston kelajagi uchun muhim hayotiy resurs. Toshkent -2000. 121b.
4. Toshev X. R Hikmatova G.I. Egamberdiyev. Suv qadri. Buxoro -2019.
5. uz. m. Wikipedia. Org. wiki. Suv omborlari.

